

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.D.Baxronov</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
<b>H.S.Ergashev</b>	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi .....	207
<b>I.T.Boltaboyev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
<b>U.X.Kolmatov</b>	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
<b>F.B.Rahmonova</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili .....	225
<b>J.Saburov</b>	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri ....	230
<b>B.A.Pulatov</b>	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari .....	236
<b>S.S.Evaton</b>	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi .....	245
SIYOSAT	
<b>Sh.Ismoilov</b>	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш .....	249
<b>D.Sh.Mahkamov</b>	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar .....	252
<b>R.Nurimbetov</b>	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari .....	255
<b>B.X.Allamurodov</b>	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan) .....	258
<b>M.B.Nabiев</b>	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
<b>N.Madumarova</b>	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida .....	269
<b>A.A.Buriyev</b>	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba .....	273
<b>D.Mamadjonova</b>	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
<b>Бурхониддин Чалодиддин</b>	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
<b>M.T.Musaev</b>	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi .....	292
<b>R.A.Arslonzoda</b>	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни .....	297



УО'К: 1. 17. 172. 172.2

**AXBORIY KURASHLAR SHAROITDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI  
MUSTAHKAMLASHNING MILLIY-MA'NAVİY OMILLARI**

**НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫЕ ФАКТОРЫ УКРЕПЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ  
ОТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОЙ БОРЬБЫ**

**NATIONAL AND SPIRITUAL FACTORS OF STRENGTHENING INTERNATIONAL  
RELATIONS IN THE CONTEXT OF INFORMATION WARFARE**

Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich   
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada axboriy-madaniy kurashlar sharoitida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish, axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье анализируются социально-философские исследования межэтнического согласия и солидарности в контексте информационной и культурной борьбы, национально-духовные факторы укрепления межэтнических отношений в контексте информационной борьбы.*

**Abstract**

*This article analyzes the socio-philosophical research of interethnic harmony and solidarity in the context of informational and cultural struggles, the national-spiritual factors of strengthening interethnic relations in the context of informational struggles.*

**Kalit so'zlar:** axborot, axboriy-madaniy tahdidlar, axboriy-diniy tahdidlar, axboriy-psixologik tahdidlar, sekulyarizm, millatlararo totuvlik, raqamli transformatsiyalashuv, axborot tengsizligi, ong manipulyatsiyasi, axborot ekstremizmi, axborot jinoysi.

**Ключевые слова:** информация, информационно-культурные угрозы, информационно-религиозные угрозы, информационно-психологические угрозы, секуляризм, международное согласие, цифровая трансформация, информационное неравенство, манипулирование сознанием, информационный экстремизм, информационная преступность.

**Key words:** information, information-cultural threats, information-religious threats, information-psychological threats, secularism, international harmony, digital transformation, information inequality, manipulation of consciousness, information extremism, information crime.

**KIRISH**

Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining mavjudligi va takomillashtib borishi; davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish; qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini isloh etish; iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlikka keng yo'l ochish; milliy tarix va ma'naviy meros qayta tiklash va rivojlantirish; milliy til, qadriyatlar, urf-odatlarni qayta tiklash va rivojlantirish; milliy manfaatlarni ifoda etuvchi va ta'minlovchi milliy madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish; milliy g'oyani yana-da rivojlantirish; yoshlarni millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish va komil inson qilib tarbiyalash; ma'naviyat va ma'rifikat yana-da takomillashtirish; millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni qaror toptirish va yana-da rivojlantirish; mintaqalar darajada do'stona hamkorlikni kuchaytirish; davlat va jamiyat oldidagi strategik vazifalarini hal etishda fuqarolik jamiyatini institutlari rolini kuchaytirish va h.k.

Axborotlashuvning millatlararo munosabatlarni taraqqiy etishiga ijobji ta'sirlarini inkor etmagan holda, uning salbiy oqibatlaridan ko'pmillatli davlatlar o'z hududida yashayotgan etnik birliklarning milliy va madaniy o'ziga xosligini saqlash va rivojlantirish, ularni eng oljanob g'oyalarini milliy g'oya tamoyillari sifatida qaror toptirish negizida jamiyat hayotida milliy birdamlilikni vujudga

## FALSAFA

keltirish hamda milliy mentalitet xususiyatlarini himoya qilish orqaligina o'z davlat xavfsizligini ta'minlashi mumkin. Shu bois, mazkur hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi sharoitida yuzaga kelayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish, millatlararo munosabatlarga tahdid solishi mumkin bo'lgan xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va zararsizlantirishda "jamiyatning tahdidbardoshlilik salohiyatini" [1] yuksaltirish muhim ahamiyatga egadir.

### MATERIALLAR VA METODLAR

Axborotlashuv tarafдорлари "demokratiya", "inson huquqlari" каби muqaddas qadriyatlarni niqob qilib olib, xalqlarni mahalliy manfaatlari, azaliy qadriyatlari, axloq normalari va an'analaridan izchillik bilan uzoqlashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlanmoqda. "An'ana va odatlarning hayotimizga ta'siri kundan-kun kamayib bormoqda, bu ijobjiy jarayon, deb ta'kidlaydi globallahuv nazariyotchilaridan biri Entoni Giddens, zero u insonga shu paytgacha erishilmagan shaxsiy erkinlikni beradi" [2]. Bu xususiyatni jamoaviylik hayot tarziga ega sharq jamiyatlariga tatbiq etishga urinish egotsentrizm, axloqsizlik kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Axborotlashuv kurashlari sharoitida millatlararo munosabatlarga salbiy ta'siri quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: milliy-madaniy qadriyatlар, milliy tilga nisbatan nigelizm kayfiyatлari paydo bo'lishi; ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlar, an'analar tizimida g'arb jamiyatiga xos bo'lgan unsurlarni uyg'unlashayotgani; insonlar o'tasida milliy vatanparvarlik g'oyasiga zarar yetkazadigan kosmopolitizm g'oyalarining ko'payishi; o'z madaniyatini boshqa madaniyatlarga nisbatan ustun qo'yish kabi ko'rinishlarda millatchilik kayfiyatлarini paydo bo'lishi va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, milliy munosabatlар va millatlararo munosabatlар uyg'unligini ta'minlash uchun quyidagilarni alohida e'tiborga olish muhim hisoblanadi: huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini takomillashib borishi milliy va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishning asosiy shartidir. Bu jarayonda hukumat siyosatini shakllantirishda jamiyatdagi turli guruhlarni manfaatlarni ifoda etadigan fuqarolik jamiyatni institutлarini ishtirokini ta'minlaydigan mexanizmni yaratishga e'tibor qaratish; jamiyat demokratlashuvi sharoitida davlat bilan xalq muloqotini ta'minlaydigan usul va vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; milliy va millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda mahalla va ommaviy axborot vositalari kabi demokratik institutlar imkoniyatidan samarali foydalanishda "Mahalla" nomli alohida veb-sayt faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Axborot asrida zamona viy taraqqiyot talablariga mos kelmaydigan, totalitar – avtoritar siyosatdan voz kechish, globallahuv sharoitida millatlararo hamjihatlikni ta'minlashning muqobil yo'il hamda yechimlarini izlashda milliy boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yilishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ko'p millatli jamiyatni boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini, avvalo, axloq, huquq hamda siyosat tashkil etadi. Agar siyosat va muayyan darajada huquq ma'lum davr bilan bog'liq holatlarni boshqarishning operativ imkoniyatлarini bersa, axloq ular uchun poydevor vazifasini o'taydigan asoslarni beradi. Kolaversa, davlat va jamiyat boshqaruvining bosh maqsadini xalq manfaatlari xizmat qilish tashkil etadi. Shu jihatdan, milliy boshqaruv bilan bog'liq masalalar qatori, ma'naviy masalalarni ham hal etishi lozim.

Fikrimizga ko'ra, davlat va jamiyat boshqaruvida etnomilliy xususiyatlarni e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Zero, bir tomonдан, davlat milliy qadriyat va an'analarни mustahkamlash, asrab-avaylash va rivojlantirish orqali odamlarning yakdilligini, jamiyatning faol a'zosi bo'lishini ta'minlashga, demak, oldimizdagи vazifalarni ado etish, muammolarni hal etishda ularni bir yoqadan bosh chiqarib safarbar etishga erishsa, ikkinchi tomonдан, milliy etnomadaniy stereotiplarga muvofiq harakat qilgan davlatga xalq ishonadi, uning atrofida jipslashadi.

"Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el – yurtimiz, avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi bo'lishi kerak, - ta'kidlaydi Sh.Mirziyoyev, Buning uchun har bir rahbar o'z aravasini o'zi tortishi, o'z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o'zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o'zgarish bo'ladi, rivojlanish bo'ladi" [3]. Buning uchun esa, millatlararo munosabatlар takomillashtirishda O'zbekistonda shakllantirilgan o'ziga xos "fuqarolik sulhi" g'oyasi davlat va jamiyat taraqqiyotiga mustahkam zamin bo'lmoqda. Bu g'oya inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillariga to'la mos keladi. Zero, "bizning ustuvor vazifamiz inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilishni ta'minlashdan iborat, — deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, — bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir" [4]. Shunday

qilib, O'zbekiston fuqarolari tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning kafolati sifatida davlat hokimiyatiga bo'lgan qat'iy ishonchi haqidagi fikrlari ijobiy va barqarorligi aniqlandi. Demak, jamiyatni demokratlashuv hayot sohalarini yangilash, dunyo bilan integratsiyalashuv, mamlakatimizning demokratik qiyofasini shakllantirish, fuqarolarimizning yangicha tafakkurini hosil qilish, milliy birdamlikni ta'minlashda keng imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

### MUHOKAMA VA NATIJA

Inson vogelikni shunchaki his qilibgina qolmaydi, balki o'z manfaatlari yo'lida unga faol ta'sir ko'rsatadi, o'zlashtiradi va o'zgartiradi. Millatlar va milliy manfaatlar, milliy his-tuyg'ular mavjud ekan, milliy munosabatlar ham kun sayin e'tiborga molik masalalar, umumiyluk munosabatlarni hisobga olgan holda o'z vaqtida va ijobji hal etilishini talab etadi. Millatlarning manfaatlariga birdan-bir to'g'ri munosabatda bo'lish, ularni eng yuqori darajada qanoatlantirish va ana shu asosda ixtiroflar chiqaradigan har qanday sabablarini oldini olish demakdir. Shu ma'noda, milliy manfaat teran ijtimoiy, psixologik hodisa bo'lib, millatlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. Milliy manfaatlar – millatga, milliy davlatga moddiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar sifatida bo'lsagina, davlat yaxlitligi, suverenitetiga xavf tug'dirmaydi.

Axboriy kurashlar sharoitida bir millatning manfaatlari boshqa millat va elatlarning manfaatlaridan, talab va ehtiyojlaridan ajratilmagan holda o'rganilishi hamda milliy birdamlikka yoshlarni baynalmilallik ruhida tarbiyalash orqali erishish mumkin. Bugungi jamiyatimizda ijtimoiy-etnik guruhlar o'rtaida hamjihatlik, an'anaviy uyg'unlik, hamkorlikning mavjudligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jadallahuviga mustahkam zamin bo'limoqda.

Axborot kurashlari asrida millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi xalqning ma'naviy-aqliy jihatdan boyishi uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi. Aks holatda ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanishiga katta putur yetkazilishi tabiiydir. Shuning uchun ham, ko'p millatli davlatlarda istiqomat qiluvchi ijtimoiy-etnik birliklar o'rtaсидаги munosabatlarga juda ehtiyojkorlik va ziyraklik bilan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli etnik guruhlarga mansub kishilarning madaniy, siyosiy, ijtimoiy savyasini shakllantirish negizida yagona vatan g'oyasi atrofida hamjihat qilib, ularga bir xil huquq va erkinliklar yaratib berish orqali milliy manfaatlar uyg'unligiga erishish maqsadi yotadi. Zero, "jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yana-da rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi,— deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev,— ularning o'rtaсига nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi" [5].

O'zbekistondagi turli millatlarning teng huquqligi ular o'rtaida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni oldini olishiga imkon beradi. Bu esa, millatlar hamjihatligiga nifoq solmoqchi bo'lgan kuchlarni o'z maqsadlariga erishishiga to'siq bo'ladi.

Milliy va etnik manfaatlar muayyan etnik guruhga xos bo'lib, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy urf-odat, an'ana, madaniyat va ma'naviyatning, shu bilan bir qatorda iqtisodiy-siyosiy jihatlarning muhim qirralarini ham o'zida mujassamlashtiradi[6]. Shu jihatdan ham bugungi millatlararo munosabatlarni takomillashtirish jarayonida etnik guruhlar faoliyatini jamiyatda umummilliyl manfaatlar ravnaqiga xizmat qildirish yo'li va usullarini ishlab chiqib, o'z navbatida, umummilliyl manfaatlarni mintaqqa va umumdunyoviy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyodagi millatlarni etnogenezi va ethoijtimoiy munosabatlari negizida milliy va ijtimoiy taraqqiyot, mintaqqa xalqlari o'rtaидаги do'stlikni, hamkorlikni rivojlantirish uchun qardosh mamlakatlarda yashayotgan millat va elatlarning talab va ehtiyojlarini har tomonlama o'rganish, ularni qondirish yo'llarini birgalikda izlash, hamda mamlakatimizning umummilliyl manfaatiga muvofiqlashtirish nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Shu ma'noda, "bizning bosh maqsadimiz — umumiyl sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat,— deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, — buning uchun biz turli nizolarni qo'zg'aydigan va unga ko'maklashadigan sabab va omillarga birgalikda barham bermog'imiz, umummintaqaviy ustuvor manfaatlarni inobatga olish asosida milliy rivojlanishni ta'minlamog'imiz zarur" [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu nuqtai nazari, umummilliyl manfaatlarimizni mintaqaviy darajadagi manfaatlar bilan uyg'unlashtirishning metodologik asosini va maqsadini belgilab beradi.

## FALSAFA

Shuningdek, umummilliy manfaatlar va ularni bir xilda qondirish barcha mavjud milliy davlat chegaralari doirasida cheklanib qolmasligi kerak. Qo'shni davlatlarda yashab kelayotgan millatdoshlarimizning milliy manfaatlarini himoya qilish ham umummilliy manfaatlarni uzviy qismi sifatida qaralishi hamda tashqi siyosiy mexanizmlar orqali ularning milliy manfaatlarini odilona himoya qilish zarur.

Milliy va umummilliy manfaatlar bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Haqiqiy ma'nodagi tafakkuri o'zgargan, milliy hamkorlik ongi shakllangan, bag'rikeng inson bo'lmoq uchun faqat o'z millatining manfaatinigina o'ylash emas, balki yonma-yon yashayotgan millatlarning manfaatlarini, ularning ozodligi va teng huquqligini tan olish va hamkorlik qilish talab etiladi.

Ijtimoiy institutlarning mamlakatni yana-da jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi hamda ikkala subyektning ko'p millatli tarkibga ega xalq o'rtaсидаги о'зига xos zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo'lga qo'yishda OAV faoliyati muhim hisoblanadi. Shuningdek, millatlararo munosabatlarni insonparvarlashtirishda milliy madaniyat, til, an'analarni saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq tadbirlar ssenariylarni ishlab chiqish, milliy madaniy markazlar tomonidan madaniy dasturlar tayyorlash va namoyish etish uchun OAVlarida imtiyozli vaqtlar ajratish; etnomadaniy tadbirlarni o'tkazishda axborot ta'minoti bilan ko'maklashish; milliy siyosat tamoyillarini targ'ib etishda ilg'or tajribani joriy etishga ko'maklashish, milliy birdamlikka tahdid soladigan xatarlarga qarshi murosasiz jamoatchilik fikrini shakllantirishda OAV imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyatli hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa qilganda, millatlararo totuvlikni ta'minlashda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Paxrudinov Sh. Tahdidbardoshlik – barqaror jamiyat asosi.“Jamiyat va boshqaruv” №2, 2011.( Pakhrudinov Sh. Threat tolerance is the basis of a stable society. "Society and Management" No. 2, 2011.)
2. Giddens A. Runaway World: How Globalisation is. Reshaping Our Live. New York: Routledge, 2000. - P.17.
3. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T; "O'zbekiston" NMIU, 2017. — B.53.( Mirziyoyev Sh. Critical analysis, strict order — discipline and personal responsibility — should be the daily rule of activity of every leader. -T; NMIU "Uzbekistan", 2017. — P.53.)
4. Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasining 70 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi qatnashchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning murojaatnomasi.22/11/2018. Internet manba: <http://www.prezident.uz> (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev to the participants of the Asian Forum on Human Rights held on the occasion of the 70th anniversary of the Universal Declaration of Human Rights. 22/11/2018. Internet source: : <http://www.prezident.uz>)
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. — T.: "O'zbekiston", 2016.- B.9. (Mirziyoyev Sh.M. Together we will build a free and prosperous, democratic country of Uzbekistan. — T.: "Uzbekistan", 2016.. B.9.)
6. Человек и культура межнационального общения (под ред С.Шермухамедова).-Т.: "Узбекистан", 1995. (Man and the culture of interethnic communication (edited by S. Shermuhammadov). — T.: "Uzbekistan", 1995.)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarcand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiya so'zlagan nutqi. 10.11.2017. Internet manba: <http://www.prezident.uz>(The speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the international conference on "Central Asia: common history and common future, cooperation for sustainable development and development" held in Samarkand. 10.11.2017. Internet source: <http://www.prezident.uz>)
8. O'sarov O. Mafkuraviy tahididlarga qarshi kurashish unda ommaviy axborot vositalarining o'rni muhim ahamiyat kasb etmog'i lozim// Milliy tiklanish gazetasi, 26 iyun 2013 yil.( Osarov O. The role of mass media should be important in combating ideological threats.)
9. Ma'naviy tahididlар va ularga qarshi kurashning ilmiy-uslubiy hamda ma'naviy-mafkuraviy asoslari" mavzuidagi ilmiy-uslubiy konferensiya materiallari. – Toshkent: Muarrir, 2010.( Materials of the scientific-methodical conference on "Scientific-methodological and moral-ideological foundations of moral threats and their fight against them". — Tashkent: Muarrir, 2010.)
10. Xodjayeva D. Ma'naviy tahidid: uning mohiyati, ko'rinishlari va ularga qarshi kurashning zarurati// "Globalashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviyam'rifiy texnologiyalari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari// O'zbekiston Respublikasi Qurollı Kuchlari akademiyasi. – Toshkent, 2019.( Khodjayeva D. Moral threat: its essence, manifestations and the need to fight against them. Proceedings of the republican scientific-practical conference// Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan. — Tashkent, 2019.)

11. Атаманов Г.А. Информационная безопасность в современном российском обществе: Социально-философский аспект: автореферат дис. ... кандидата философских наук. – Волгоград, 2006.( Atamanov G.A. Information security in modern Russian society: Social and philosophical aspect: abstract of dis. ... candidate of philosophical sciences. – Volgograd, 2006.)

12. Begalov B.A. Axborot- kommunikatsiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modelllashtirish: dis. Avtoref.... i.f.d. – T.: TDIU, 2001.( Begalov B.A. Econometric modeling of trends in the formation and development of the information and communications market: thesis. Autoref.... i.f.d. — T.: TDIU, 2001.)